

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O‘zbekistonda alkogol mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Radjabov Xushvakt Jamshedovich

Annotatsiya. Maqolada aksiz solig‘i ma’muriyat chiligin takomillashtirish bilan bog‘liq muhim masalalarini o‘rganiladi. Aksiz solig‘i davlat daromadlarini shakllantirishda va muayyan tovar va xizmatlar iste’molini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Muammolarni tahlil qiladi va aksiz solig‘ini undirishni kuchaytirish, ma’muriy jarayonlarni soddallashtirish va rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha potensial yechimlarni taklif qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish orqali mamlakatlar aksiz solig‘i tushumlarini optimallashtirishlari va yaxshi fiskal va tartibga solish natijalariga erishishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: ma’muriyat, qiyinchiliklar, samarasizlik, muvofiqlik, daromadlarni optimallashtirish, tartibga solish natijalari, soliqlar va soliqqa tortish, egri soliqlar, aksiz solig‘i, aksizosti mahsulotlar, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti.

Kirish. Aksiz solig‘i davlat daromadlarini shakllantirishda va ayrim tarmoqlarni tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, aksiz solig‘i bo‘yicha samarali ma’muriyat chilikni ta’minlash turli qiyinchiliklar va samarasizlik tufayli murakkab vazifa hisoblanadi. Aksiz solig‘i ma’muriyati tartibga solinadigan tarmoqlarga ta’sirini hisobga olgan holda rioya etilishini nazorat qilish,adolatli yig‘ishni ta’minlash va daromadlarni optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Aksiz solig‘i ma’muriyat chiligidagi duch keladigan muammolarni o‘rganish va takomillashtirish strategiyalarini taklif qilishga qaratilgan. Ushbu muammolarni hal qilish orqali hukumatlar soliq yig‘ish mexanizmlarini yaxshilashlari va maqsadli tarmoqlar uchun yaxshi tartibga solish natijalariga erishishdan iborat.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish faoliyati bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shug'ullanayotgan sub'ektlar faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash va davlat byudjetiga tegishli soliqlarni undirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Alkogol mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'idan **1 813 mlrd.so'mlik** prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlanib (2021-yilga nisbatan 1,2 baravarga ko'p), 1 sentyabr holatiga **816,8 mlrd.so'mlik** yoki **45 foizi** ta'minlandi.

O'tgan yilning mos davrida **794,5 mlrd.so'm** yoki yillik prognoz ko'rsatkichning **51,4 foizi** ta'minlangan. Kuz-qish oylarida alkogol mahsulotlariga talabning o'sishi hisobiga 2021-yil **sentyabr-dekabr** oylarida 621,6 mlrd.so'm (yillik prognozning **40,2 foizi**) tushum ta'minlangan.

Alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i to'lovchilari soni **54 tani** tashkil etib (shundan, 4 ta etil spirti ishlab chiqaruvchi), alkogol mahsulotini ishlab chiqaruvchi **50 ta** korxonaning **36 tasida** (72%) aksiz solig'i to'lovi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **115,8 mlrd.so'mga** yoki **21 foizga kamaygan**.

Quyidagi **omillar** (7 ta) ta'siri yil boshidan **324,5 mlrd.so'mdan ortiq** aksiz solig'i va **68,0 mlrd.so'm** QQS hisoblanmasligiga olib kelgan:

Etil spirti va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2022-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yil mos davriga nisbatan **10 foiz kam** mahsulot realizatsiya qilinganligi (2022-y. - **9,4 mln. dal**, 2021-y. – **10,4 mln.dal**) natijasida **119,2 mlrd.so'm** aksiz solig'i hisoblanmasligiga olib kelgan.

Xususan, o'tgan yilning mos davrida **44,8 ming dal** spirtli ichimlik realizatsiya qilgan va jami **9,4 mlrd.so'm** aksiz solig'i to'lagan **12 ta** korxona joriy yilda faoliyat ko'rsatmagan.

Shundan, 1 ta korxonani ("S" MChJ) litsenziyasi bekor bo'lgan, 3 ta korxona ("O K" MChJ, "Yangi sharobi" MChJ, "Gall nur" XK) litsenziyasi 6 oyga (1 oktyabrgacha) to'xtatilgan va 1 ta korxonaning ("D" MChJ) aroq va likyor mahsulotini ishlab chiqarish uchun litsenziyasini bekor qilingan.

Misol uchun: "Toshtvino" AJ 439,8 ming dalga (-11,9 mlrd.so'm aksiz), "Far" MChJ 169,2 ming dalga (-5,1 mlrd.so'm), "A" MChJ 165,4 ming dalga (-14 mlrd.so'm) va "Far" MChJ QK 154,3 ming dalga (- 20,3 mlrd.so'm) kamaygan.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida 9 ta korxonada **1,7 mln.dal** alkogol mahsulotlari realizatsiyasi qilinib, aynan ularda realizatsiya hajmi o'tgan yilga nisbatan **2 baravarga** o'sgan va byudjetga **222,3 mlrd.so'm** aksiz solig'i to'langan (2,3 baravarga ko'p).

Etil spirtini ishlab chiqaruvchilar tomonidan joriy yilning yanvar-avgust oylarida **111,2 mln.tonna** bug'doy xom ashysi xarid qilinib, o'tgan yilning mos davriga (128,2 mln.tonna) nisbatan **16,9 mln.tonnaga** (-13,2 foiz) kamaygan. Xuddi shunday, alkogol mahsulotini ishlab chiqaruvchilar tomonidan joriy yilda **2,6 mln.dal** etil spirti xom ashyo sifatida xarid qilingan bo'lsa, o'tgan yilning mos davrida bu ko'rsatkich **3,1 mln.dalni** (-511,9 ming dal yoki -16,4 %) tashkil etgan.

O'tgan yilga nisbatan kam xarid qilingan xom ashydadan (bug'doy va etil spirti) ishlab chiqarilishi mumkin bo'lган **546,7 ming dal** etil spirti hamda **411,6 ming dal** alkogol mahsulotlari bo'yicha **64,9 mlrd.so'm** aksiz solig'i yo'qotildi.

Etil spirtini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 2022-yil yanvar-avgust oylarida **3,5 mln.dal** mahsulot realizatsiya qilinib, shundan **2,6 mln.dal** (o'tgan yilga nisbatan 511,9 ming dal kam) alkogol ishlab chiqaruvchilarga, qolgan **934,8 ming dal** (o'tgan yili 587,5 ming dal) **593 ta boshqa ishlab chiqaruvchilarga** realizatsiya qilingan. **"Andijon" AJ** tomonidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan alkogol ishlab chiqaruvchilarga 271,9 ming dal kam (51 foiz), boshqa ishlab chiqaruvchilarga 293,9 ming dal ko'p (2,8 baravarga oshgan) mahsulot realizatsiya qilingan. Jamiyat tomonidan Onlayn-NKT orqali **24,7 mlrd. so'mlik** mahsulotlar **naqd pulga** realizatsiya qilinganligi (272 ta chek), antiseptik mahsulotlar ishlab chiqarish uchun **zaruriy xom ashyolar** (glitserin, vodorod peroksidi, rang beruvchilar) **xarid qilinmaganligi**, tayyor mahsulotni qadoqlash uchun **xarid qilingan flakonlar** (50 ml) hamda realizatsiya **qilingan mahsulot qadoqlari** (200 ml) hajmidagi **farq mavjudligi** sababli, jamiyat tomonidan xarid qilingan **137,6 ming dal etil spirti** keyinchalik alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga **naqd pul evaziga sotilayotgani shubha qilinmoqda** (soliqdan qochish sxemasi ilova qilinadi).

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagagi VMQ 80-sон qaroriga asosan mazkur sub'ektlarga nisbatan, minimal narxlaridan **past narxlarda sotilgan qiymatning**

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

20 foizi miqdorida, biroq **BHMning 100 baravaridan kam bo‘limgan miqdorda** moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan. Shu sababdan, belgilangan qiymatdan past narxda realizatsiya qilingan 9 ta korxonaga nisbatan jami 453,1 mln.so‘m moliyaviy sanksiya qo‘llash lozim.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraq-fakturalarda aksiz solig‘i aks etmaslik yoki kamaytirib ko‘rsatish natijasida **90,4 mlrd.so‘m** aksiz va **68,0 mlrd.so‘m** qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmasdan qolganligi aniqlandi. **2022-yil 1-yanvardan** boshlab raqamli markirovkalangan mahsulotlar chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub’ektlari uchun onlayn NKM va virtual cassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to‘g‘ri o‘qishni va aniqlashni ta’minlovchi maxsus qurilmalardan majburiy foydalanish talabi o‘rnatalgan (04.10.2021-yildagi PQ-5252-son).

Alkogol mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarish va sotilishi holatlari.

Davlat soliq xizmati organida alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda uning realizatsiyasida savdo qoidalariга ryoja etish yuzasidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish, savdo qoidalari buzilganlik holati bo‘yicha jarima qo‘llash, noqonuniy (qalbaki) alkogol mahsulotlarini olib qo‘yish, mavjud litsenziyani bekor qilish yuzasidan tegishli agentlikka murojaat qilish vakolati mavjud.

Joriy yilda o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida sotuvdagи **377,2 mln.so‘mlik 8 559 litr** qalbaki aksiz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar, **3,6 mln.so‘mlik 115 litr** eski namunadagi aksiz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar, **7,7 mln.so‘mlik 223 litr** markirovkalanmagan spirtli ichimliklar va **284,9 mln.so‘mlik 37 100 litr** noqonuniy ishlab chiqarilgan spirt mahsuloti olib qo‘yilgan.

Xususan, Farg‘ona viloyatida 4 753 litr (227,2 mlrd.so‘m), Surxondaryo viloyatida 1 510 litr (67,8 mlrd.so‘m), Toshkent viloyatida 1 693 litr (48,7 mlrd.so‘m), Xorazm viloyatida 718 litr (35,8 mlrd.so‘m) va Toshkent shahrida 223 litr (9,1 mlrd.so‘m) markirovkalanmagan hamda qalbaki yoki eski namunadagi aksiz markali alkogol mahsulotlar olib qo‘yilgan. Qolgan hududlarda o‘tkazilgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tekshiruvlarda bunday holatlar aniqlanmagan.

Xulosa va takliflar.

Amaldagi aksiz solig'i to'g'risidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va aniqlik kiritish yo'nalishlarini aniqlash uchun har tomonlama ko'rib chiqish. Soliq ma'muriyati imkoniyatlarini oshirish va soliqdan bo'yin tovlashni yanada samarali aniqlash uchun ilg'or texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilini kuchaytirish. Soliq organlari xodimlarining malaka va bilimlarini oshirish uchun ularni muntazam ravishda o'qitish va salohiyatini oshirish dasturlarini tashkil etish. Yuqori xavfli sohalarga 'tiborni qaratish va qonunchilikka riox qilishni yaxshilash uchun soliq tekshiruvlari va ularni amalga oshirishda tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni ishlab chiqish. Soliq ma'muriyatichiligi masalalari bo'yicha soliq to'lovchilar o'z fikrlarini bildirish va o'z fikr-mulohazalarini bildirish uchun qayta aloqa mexanizmini yaratish.

Ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda aksiz solig'i ma'muriyatichilagini takomillashtirish, daromadlarni samaraliroq yig'ish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va soliq to'lovchilar o'rtasida qonunchilikni kuchaytirishga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Faafur Fулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.

Нормурзаев У. (2021). Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в Узбекистане. *Economics and Education*, (6), 82–86. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss6/a285

Нормурзаев, У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от

https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954

Нормурзаев, У. (2023). Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида молия бозорининг долзарб муаммолари тадбиркорликни тенг рақобат

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

шароитларини яратиш ҳамда яширин иқтисодиёт улушини қисқартириш йўлари. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88–89. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032>

Нормурзаев, У. (2023). Солик имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51

Нормурзаев, У. (2023). Яширин иқтисодиётни камайтиришда солик органларининг аҳамияти. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 215–221. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66>